


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

U.I.Obidjanov	
Laboratoriya mashg'ulotlarining biologiya fanini o'zlashtirishga ta'siri.....	96
M.A.Abduxalilova	
O'quvchilarida ekologik madaniyat va barqaror rivojlanish tamoyillarini shakllantirish	100
M.A.Mamasaidova, M.X.Akbaraliyeva	
Boshlang'ich ta'lrim o'quvchilariga ko'paytirish amalini o'rgatishning interfaol usullari	107
G.S.Qosimova	
Tibbiy ta'limga matematik modellashtirish orqali organizmning funksional holatlari va himoya-moslashuv jarayonlarini o'qitish usullari.....	112
S.R.Toshboyeva, L.A.Yusupova	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida kombinatorika elementlarini o'qitishda qo'llaniladigan asosiy qoidalar	117
A.A.Мирзалиев	
Пути повышения эффективности системы морально-психологической подготовки и теоретическая модель ее организации.....	121
A.T.Akbarov	
Basketbolning jismoniy rivojlanish va salomatlikni mustahkamlashdagi muhim roli	127
S.M.Sidiqov	
Yosh voleybolchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda harakatli o'yinlardan foydalanish	132
Z.N.Usmonov	
Jismoniy madaniyat ta'limi va tarbiysi jarayonini rejalashtirishga qo'yiladigan talablar.....	137
S.T.Xakimov, N.B.Komilova	
Umumiylar ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish (basketbol sport turi misolida)	142
X.T.Xasanov	
Kasb-hunar maktablari o'quvchilarining kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligi xususiyatlari	147
G.K.Yakubova	
Turli yoshdagagi odamlarning har hil sharoit va hududlarda nafas olishini tahlil qilish.....	153
T.T.Yusupov	
Maktabgacha yoshdagagi bolalar uchun gimnastika mashqlari majmuuni tuzish va uni o'tkazishga qo'yiladigan talablar	158
Y.J.Mirzaaxmedova	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixi bo'yicha bilimlarni shakllantirishning pedagogik jihatlari	164
A.M.Maxmutaliyev	
Umumta'lim maktabining boshlang'ich jismoniy madaniyat jamoasi faoliyatida innovasiyalar.....	168
D.E.Yuldasheva	
Bo'lajak o'qituvchilarida ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning shaxsga yo'naltirilgan yondashuv texnologiyasi	173
Y.J.Mirzaaxmedova	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirishning pedagogik imoniylatlari	178
D.E.Yuldasheva	
Bo'lajak o'qituvchilarida ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning shaxsga yo'naltirilgan yondashuv modeli	182
L.E.Bobomurodova	
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining ma'naviy va kasbiy sifatlariga qo'yilgan talablar	189
G.O'.Yuldasheva	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik refleksiyalash qobiliyatini rivojlantirish: komponentlar va ularning ahamiyati.....	194
E.K.Muxtarov	
Kvant mexanikasi fanidan amaliy darslarda masalalarni yechishning metodik jihatlari	194



UO'K: 371.13+37.015.3+37.018+37.041+37.013.42

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA IJTIMOIY-KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI
RIVOJLANTIRISHNING SHAXSGA YO'NALТИRILGAN YONDASHUV TEKNOLOGIYASI**

**ТЕХНОЛОГИЯ ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОДХОДА К
ФОРМИРОВАНИЮ СОЦИАЛЬНО-КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ
ПЕДАГОГОВ**

**PERSON-CENTERED APPROACH TECHNOLOGY FOR DEVELOPING SOCIO-
COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS**

Yuldasheva Diyora Erkinovna 
Farg'onan davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish masalasi shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida o'rnilgan. Tadqiqotda ijtimoiy-kommunikativ kompetentlik tushunchasi, uning tarkibiy qismlari, hamda pedagogik faoliyatda tutgan o'rni tahlil qilinadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv texnologiyasining nazariy asoslari, metodik prinsiplari va amaliy mexanizmlari aniqlanib, ularning bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonidagi samaradorligi asoslab berilgan. Ishda innovatsion metodlar, interaktiv o'quv usullari va kommunikativ treninglar orqali talabalar faoliyatida ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish yo'llari taklif etilgan. Tadqiqot natijalari, mazkur kompetentlikni shakllantirishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning dolzarbliji va amaliy ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Аннотация

В статье рассматривается проблема формирования социально-коммуникативной компетентности будущих учителей на основе личностно-ориентированного подхода. В исследовании анализируется понятие социально-коммуникативной компетентности, ее компоненты и роль в педагогической деятельности. Определены теоретические основы, методические принципы и практические механизмы технологии личностно-центрированного подхода, обоснована их эффективность в процессе подготовки будущих учителей. В работе предложены пути развития социальных и коммуникативных навыков в деятельности учащихся посредством инновационных методов, интерактивных методов обучения и коммуникативного тренинга. Результаты исследования демонстрируют актуальность и практическую значимость личностно-ориентированного подхода в формировании данной компетенции.

Abstract

The article studies the issue of developing socio-communicative competence in future teachers based on a person-centered approach. The study analyzes the concept of socio-communicative competence, its components, and its role in pedagogical activity. The theoretical foundations, methodological principles, and practical mechanisms of the technology of a person-centered approach are identified, and their effectiveness in the process of training future teachers is substantiated. The work proposes ways to form social and communicative skills in students' activities through innovative methods, interactive teaching methods, and communicative training. The results of the study demonstrate the relevance and practical importance of a person-centered approach in the formation of this competence.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, ijtimoiy, kommunikativ, pedagogik, kompetentlik

Ключевые слова: учитель, социальный, коммуникативный, педагогический, компетентность

Key words: teacher, social, communicative, pedagogical, competence.

KIRISH

«Pedagogika fani metodologyasi» fanini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, o'z navbatida, mazkur jarayonni amaliylashtirishni, ya'ni seminar va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda texnologik yondashuvni tatbiq etishni talab etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bugungi innovatsion ta'l'im-tarbiya jarayonida texnologik yondashuv masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Texnologik yondashuvning eng asosiy afzallikkari kutiladigan natijalarining

oldindan aniqlanishi, ana shu natijalarga asoslangan holda o'quv maqsadining aniq belgilab olinishi, o'z navbatida, ta'lif maqsadining o'quv vazifalariga aylantirilishi, ta'lif shakli, metod va vositalarining to'g'ri tanlab olinishini tashkil etadi. O'quv jarayonini texnologiyalash professor-o'qituvchi va talaba faoliyati bosqichlarini alohida-alohida texnologiyalashni taqozo etadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish tizimini amalga oshirishda quyidagi vazifalar qo'yildi va hal qilindi: ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish darajasini aniqlash mezonnari va ko'rsatkichlarining ishonchliligini tekshirish; birinchi bosqich talabalarining ijtimoiy-ijodiy kompetentligini shakllantirishning boshlang'ich darajasini aniqlash; biz ishlab chiqqan tizimni qo'llash natijasida birinchi kurs talabalarining ijtimoiy-ijodiy kompetentligi darajasi dinamikasini tekshirish; biz taklif qilayotgan tizimning samaradorligini tayanch OTMlarda qo'llanib kelinayotgan o'quv-tarbiyaviy ta'lif tizimlari bilan taqqoslab, aniqlash; biz aniqlagan har bir shart-sharoit ijtimoiy-ijodiy kompetentlikni yanada samarali rivojlantirishga yordam berish-bermasligini aniqlash; tanlangan shartlarning butun majmuasidan foydalanganda biz taklif qilayotgan ijtimoiy-ijodiy kompetentlikni rivojlantirish tizimi samaradorligining oshganligini aniqlash.

Jamoaviy (guruqli) va individual baholash shakllari; ta'lif faoliyati muvaffaqiyatining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari; statik (yakuniy) va dinamik (protsessual) baholash usullari; talaba o'quv portfelining ichki (shaxsiy) va tashqi (ijtimoiy reprezentativ) jihatlari.

Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish darajasini aniqlashda kompleks yondashuvdan foydalanganish maqsadga muvofiqdir. Biz turli xil diagnostika usullaridan keng foydalanganmiz: talabalarni kuzatish uslubining turli xil variantlaridan (auditoriyada, auditoriyadan tashqarida, institutdan tashqari ishlarda va boshqalar); maxsus psixodiagnostik treninglar; maxsus ishlanmalar bo'yicha ijtimoiy-madaniy mazmundagi "sinov" darslarini o'tkazish; turli xil intellektual va mavzuli tanlovlardan, konferensiyalarni tashkil etish; turli psixometrik metodlardan foydalangan holda va talabalarning individual xususiyatlari hamda tayyoragarlik darajasini hisobga olgan holda psixodiagnostik tadqiqotlar o'tkazish.

Bo'lajak o'qituvchilar tayyorlashning an'anaviy tizimida asosiy e'tibor talabalarning bilim va ko'nikmalarini oshirish uchun nimaga va qanday o'qitish masalasiga qaratilsa, zamonaviy didaktikaning muhim vazifasi o'z pedagogik faoliyatida samarali pedagogik vositalar arsenalidan foydalananish ko'nikmalarini shakllantirishni taqozo qiladi. Pedagogik ta'limning zamonaviy talablari va ilg'or texnologiyalariga muvofiq tavsiflash-ta'kidlash darajasidagi bilimlarni o'zlashtirishga oid qarashlardan voz kechib, qadriyatli munosabatlarni rivojlantirish, bo'lajak o'qituvchining motivatsiyasi sohasini zamonaviy, tarixiy, ijtimoiy-madaniy va ilmiy-pedagogik tafakkur qadriyatlari darajasiga ko'tarish maqsadga muvofiq.

Texnologik yondashuvning umumiyoq tavsifiga tayangan holda, tadqiqot doirasida «Pedagogika fani metodologyasi» fanini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv yondashuv asosida o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishning texnologiyasi ishlab shiqildi, uni "Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv ijtimoiy-kommunikatsiya kompetensiya texnologiyasi" deb atadik.

Texnologiyaning birinshi bosqishi "ijtimoiy-kommunikativlikka oid bilimlarga ega bo'lish" deb nomlanib, quyida belgilangan vazifalarni hal etish asosida amalga oshiriladi:

1. Talabalarni «Pedagogika fani metodologyasi» faniga doir bilimlar bilan tanishtirishda кундалик ижтимоий савол ва жавоблар асосида бериладиган билимга нисбатан қизиқиш пайдо қилинади. Ushbu jarayonda pedagog tomonidan keyingi vazifalarni belgilashda talabalarning mavjud ijtimoiy-kommunikativ sifatlari aniqlanadi (og'zaki savol-javoblar orqali).

2. «Pedagogika fani metodologyasi» fanli kesimida bilimlarni egallashda o'quv materiallari асосида мулоқотли алоа шакллантирилади va talabada ijtimoiy-kommunikativlik ko'nikmalari shakllana boshlaydi. Mazkur bosqichda interfaol metodlar, muammoli vaziyatlardan foydalilanadi. Bu jarayonda imkon doirasida talabalarning individual faoliyat olib borishlariga erishilishi muhim. Individual ishslash jarayoni har bir talabada o'z vazifasiga mustaqil yondashishni taqozo etadi. Natijada talabalarning shaxsiy fikr, shaxsiy munosabat va kommunikativ sifatlari o'sadi.

Texnologiyaning ikkinshi bosqishi "Mavzularni ijtimoiy-kommunikativlikni rivojlantirishga yo'naltirish" deb nomlanib, mazkur bosqishda mavzularni o'rganishda kommunikativlikning ijtimoiy-ta'limi, ijtimoiylashuvdagi ahamiyatini aniqlash va tahlil etish vazifalari hal etildi. Oldingi bosqichda

PEDAGOGIKA

talabada shakllantirilgan Ijtimoiy-kommunikativlik ko'nikmalari malaka darajasida rivojlantiriladi. Mavzularni o'rganishda kommunikativlikning ijtimoiy-ta'limiylar shaxs ijtimoiylashuvidagi ahamiyatini aniqlash va tahlil etish individuallikka yo'naltirilgan o'yinlar asosida tashkil etildi.

Texnologiyaning uchinchi bosqichi "Mavzularni ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish tizimiga aylantirish" deb nomlanib, mazkur bosqichda muammoli vaziyatlarni hal etishda Ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga va mashg'ulotlardagi topshiriqlarni bajarishda Ijtimoiy-kommunikativ yechimlardan foydalanish vazifalarini hal etishga alohida e'tibor qaratildi, ya'ni olingen bilim, shakllangan ko'nikma, malakalar va boshqa amaliy hamda intellektual imkoniyatlar tizimlilik kasb etadi, tadrijiy rivojlanib borib kompetensiya o'laroq maromiga yetadi.

Muammoli vaziyatlarni tahlil etish talabalarda ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda yuqori samarali natija ko'sratuvchi metod bo'lib, bu orqali ular kundalik va kelgusi kasbiy faoliyatida yuzaga keluvchi vazifalarini tahlil etish, to'g'ri yechim topishga oid bilimlarni egallaydilar.

NATIJA VA MUHOKAMA

Bo'lajak o'qituvchilarda Ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda muammoli vaziyatlardan foydalanish quyidagi vazifalarini hal etishga yordam beradi: 1) bo'lajak o'qituvchilarning muammoli vaziyatlarni «Pedagogika fani metodologyasi» fanlari asosida egallagan bilimlari doirasida ijodiy hal etish; 2) muammoli vaziyatlarni yesishsha bo'lajak o'qituvchilarning Ijtimoiy-kommunikativlikka asoslangan fikrlashini yo'lga qo'yish; 3) bo'lajak o'qituvchilarning vaziyatni hal etishda vaqtidan unumli foydalanishi, diqqat e'tibori va aql kuchini jamlashi; 4) individual va guruhiy fikriy faoliyatni rivojlantirish. Muammoni hal etishning bir necha to'g'ri variantlarini izlab topish ko'nikmasini tarkib toptirish.

Muammoli topshiriqlarni bajarish bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyaviy yechimlari asosida amalga oshirilib, ularning faqat mavzu yuzasidan fikr yuritishiga emas, balki qo'shimcha axborotlarni ham o'rganishlariga imkon beradi.

Tadqiqotimiz davomida "Pedagogika" ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabalari uchun "Pedagogika fani metodologyasi" fani doirasida o'quv jarayoniga tatbiq etilgan Ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning 3 bosqichli texnologiyasi ishlab chiqildi. Quyida 4-kurs talabalari uchun "Pedagogika fani metodologyasi" fanini o'qitishda amalga oshirilgan ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning texnologiyasini keltirib o'tamiz:

Mavzu: "Pedagogika fani metodologyasi" fanining mazmuni, maqsadi va vazifalari

1. Tayyorlov bosqichi (motivatsion va diagnostik bosqichi)

Maqsad: 1. O'quvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishini oshirish.

2. Ilgari olingen bilimlarni faollashtirish.

3. Dars uchun psixologik qulay muhit yaratish.

Metod va vositalar: "**Bumerang savol**" metodi – O'qituvchi talabalar bilan quyidagi savollar orqali suhbat o'tkazadi:

- Pedagogika nima?"
- Metodologiya nima?"
- "Nima uchun har qanday fan metodologik asosga ega bo'lishi kerak?"

Kichik guruhlarda fikr almashish – O'quvchilar oldindan bilgan ma'lumotlarini bir-birlari bilan muhokama qilishadi.

Aqliy hujum (brainstorming) – "Pedagogika fani metodologyasining asosiy tushunchalari qanday bo'lishi mumkin?" savoliga javob izlash.

Kutilayotgan natija:

- O'quvchilar o'z bilimlarini faollashtiradi.
- Mavzu bo'yicha dastlabki tushunchaga ega bo'lishadi.

2. Asosiy bosqich (tadqiqot va tushuntirish bosqichi)

Maqsad: O'quvchilarga pedagogika metodologyasining nazariy asoslarini tushuntirish.

Ularni faoliyk va mustaqil fikrlashga o'rgatish. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv rivojlanish elementlarini qo'llash.

Metod va vositalar:

"Interaktiv ma'ruza" – O'qituvchi pedagogika fani metodologiyasining asosiy tushunchalarini tushuntiradi, lekin shu bilan birga o'quvchilar bilan muloqot qiladi va misollar orqali mavzuni ochib beradi.

"Klaster metodi" – O'quvchilar "Pedagogika metodologiyasining asosiy tushunchalari" bo'yicha klaster tuzadilar.

"Vaziyatli tahlil (case-study)" – O'quvchilarga turli pedagogik tadqiqot usullariga doir real misollar berilib, ularni tahlil qilish topshiriladi.

"Jadval bilan ishlash" – Pedagogika metodologiyasining asosiy bosqichlarini jadval shaklida o'rghanish.

Bosqich	Tushuntirish
Empirik	Kuzatish, tajriba, statistik ma'lumotlar yig'ish
Nazariy	Ilmiy konsepsiylar yaratish
Amaliy	Pedagogik jarayonda qo'llash

Kutilayotgan natija:

O'quvchilar pedagogika metodologiyasining asosiy tushunchalarini o'zlashtiradi.

Tadqiqot metodlariga oid asosiy tushunchalarni tushunadi va real misollar bilan bog'lay oladi.

3. Yakuniy bosqich (refleksiya va baholash bosqichi)

Maqsad: O'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini mustahkamlash.

Dars bo'yicha fikr-mulohazalarni olish.

O'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirish.

Metod va vositalar:

"Teskari aloqa" – Talabalar "Bugun nimalarni o'rgandim?" degan savolga yozma yoki og'zaki javob berishadi.

"Refleksiya kartasi" – O'quvchilar quydagi jadvalni to'ldirishadi:

Savol	Javob
Eng qiziqarli jihat nima bo'ldi?	?
Eng qiyin tushunchalar qaysilar?	?
Yana nimalarni bilishni xohlaysiz?	?

"Fikrlar zanjiri" – Har bir o'quvchi o'ziga eng foydali bo'lgan bilimni aytib, keyingi o'quvchiga uzatadi.

Baholash mezonlari bo'yicha tahlil – O'qituvchi quydagi jihatlar bo'yicha o'quvchilar faoliyatini baholaydi:

Faollik

Mustaqil fikrlash

Mavzuni tushunish darajasi

Guruhda ishlash ko'nikmasi

Uyga vazifa:

"Pedagogik tadqiqot metodlari" mavzusida kichik tadqiqot tayyorlash.

"Pedagogika metodologiyasida zamonaviy yondashuvlar" bo'yicha maqolalarni o'rganish.

Kutilayotgan natija:

O'quvchilar dars jarayonida o'z kompetensiyalarini baholaydi.

O'z kamchiliklarini anglab, kelajakda ularni bartaraf etish yo'nalishlarini belgilaydi.
O'z-o'zini rivojlantirishga qiziqish ortadi.

XULOSA

Ta'limning globallashuvi hamda sog'lom va muammoli ta'lim muhitini tashkil etish orqali talabalarni birgalikda o'qitish maqsadiga xizmat qiladigan integrallashgan ta'limni tashkil qilish samarali ekanligi aniqlandi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv yondashuv axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz ko'p kichik qismlarning o'zaro ajralmas bog'liqligi, ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona to'g'ri xulosani aniqlash jarayoni ekanligi kelib chiqadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как резульвативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании // 2005. – № 6. – С.13-29.
2. Зиновкина М.М. НФТМ - ТРИЗ: Креативное образование 21 века. (теория и практика) // Монография. – М.: МГИУ, 2007. – 306 с.
3. Зинченко, В.П. Сознание и творческий акт. – М.: Языки славян-х кул-р, 2010.
4. Ибрагимова Г. Интерфаол ўқитиши методлари ва технологиялари асосида талабаларнинг креативлик қобилияларини ривожлантириш: пед. фанл. бўйича фалсафа доктори (PhD). ...дисс. – Т.: 2017. – 155 б.
5. Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. СПб.: Питер, 2009. – 448с.
6. Исмоилова З. Талабаларнинг касбий-педагогик малакаларини шакллантириш: пед. фанл. ном. ...дисс. – Т.: 2000. – 130 б.
7. Кан-Калик, В.А. Учителю о педагогическом общении. – М.: Просвещение, 1987. 190 с.
8. Кадирова М.Р. Тилларга ихтисослашмаган олий таълим муассасалари талабаларида чет тилини ўргатишида ижодий фаолликни модернизациялаш: пед. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD). ...дисс. – Т.: -2018. – Б.20.
9. Лукьянова, Л.А. Формирование функционально-содержательной основы социокультурной компетенции учащихся 10-11 классов общеобразовательной школы (на материале английского языка) [Текст]: дис. канд. пед. наук: 13.00.02. – Санкт-Петербург, 2014. – 186 с.